

EGZISTENSIALIST MOTIVLAR

Shirinmoh To'rayeva

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15346200>

Annotatsiya. O. Genrining “So‘nggi yaproq” va Jan Dominik Bobbinning “Skafandr va kapalak” asarlarida uchraydigan bemorlik motivi adabiy tahlil etilgan. Bunda “bemor” tushunchasining etimologiyasi, psixologiya, tibbiyot, falsafa va adabiyotdagi talqinlari chuqur yoritiladi. Bemorlik bu ikki asarda nafaqat jismoniy kasallik, balki insonning ichki ruhiy holati, umid va najot istagini ifodalovchi badiiy vosita sifatida ko‘riladi. Asarlardagi qahramonlarning ruhiy sinovlari va iroda kuchi bemorlik motivi orqali tahlil qilinadi. Tezida bemorlik motivining adabiy asar mazmunini boyitishdagi ahamiyati, uning ramziy va estetik yuklamalari asoslangan holda tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: egzistensialist motivlar; “So‘nggi yaproq”; “Skafandr va kapalak”; qadriyat; o‘zlikni anglash.

Insoniyat qadimdan beri salomatlik va kasallik, hayot va o‘lim muammolari bilan yuzmayuz bo‘lib kelgan. Har bir davrda bu holat nafaqat tibbiy, balki falsafiy, ruhiy, va estetik nuqtai nazardan ham tahlil etilgan. Adabiyot esa inson ichki kechinmalarining eng nozik qatlamlarini aks ettiruvchi san’at turi sifatida bemorlik holatini chuqur yoritib beradi. Chunki bemorlik — bu nafaqat jismoniy holat, balki insonning ruhiy dunyosi, umid, iztirob, najot va iroda kabi murakkab ichki jarayonlarining badiiy ifodasidir. Adabiyot inson qalbi, ruhiyati va hayot haqidagi mushohadalarini badiiy shakllarda ifoda etuvchi kuchli vositadir. Unda bemorlik holati faqat jismoniy dard emas, balki chuqur ruhiy, ijtimoiy va falsafiy ma’nolar bilan boyitilgan. Egzistensialist motivlar — bu adabiyotda insonning borliqdagi holati, ma’no izlash, yolg‘izlik, erksizlik va tanlov oldidagi azob kabi egzistensial (ya’ni mavjudlikka oid) tushunchalarni yorituvchi g‘oyaviy-badiiy yo‘nalishdir. Bemor obrazlar orqali muallif hayot va o‘lim o‘rtasidagi nozik chegarani, insonni ruhiy zaiflashishdan najotga olib chiqadigan kuchlarni namoyon qilar ekan, bu jihatdan bemorlik motivi ko‘plab jahon adabiyotidagi asarlarning markazida turadi. Jumladan, O. Genrining “So‘nggi yaproq” hikoyasi va Jan Dominik Bobbinning “Skagandr va kapalak” asari zahirida ham aynan bemorlik holati insoniylik, umid va ijodiy qudrat mavzulari bilan bog‘langan holda tasvirlanadi. Mazkur ishimizda aynan bemorlik tushunchasining genezisi, tibbiyot, psixologiya, falsafa va adabiyotdagi talqinlari hamda yuqoridagi ikki asarda u qanday badiiy vazifani bajarayotgani atroflicha tahlil qilinadi.

O. Genrining “So‘nggi yaproq” novellasi va Jan Dominik Bobbining “Skafandr va kapalak” asarlari ana shunday badiiy-falsafiy uyg‘unlikda bemorlikni markaziy motiv sifatida qamrab oladi. So‘zimiz avvalida bemorlik haqida to‘xtalsak. Bemorlik bu odam organizmida normal holatning buzilishi bo‘lib, sog‘liqning yomonlashuvi, jismoniy yoki ruhiy noqulaylik, faoliyatning cheklanishi bilan ifodalanadi. U turli sabablarga ko‘ra yuzaga keladi: infeksiyalar, stress, jarohatlar, ruhiy bosim va boshqalar. Bemorlik bu shunchaki kasallik emas, balki odamning o‘zini sog‘lom his qilmasligi, oddiy hayot tarzini davom ettira olmasligi holatidir. U vaqtinchalik ham surunkali ham bo‘lishi mumkin. Umuman olganda bemorlik bu inson tanasi yoki ruhiyatida yuzaga kelgan muvozanatning buzilishi holatidir. Bemor so‘zining genezisi ya‘ni kelib chiqishi fors tilidan kirgan bo‘lib, “be” (inkor qo‘shimchasi – yo‘q, emas) va “-mor” (mehr, ahvol, sog‘liq, muhabbat) so‘zlaridan tashkil topgan. Bu so‘z aslida “mehr-dan, sog‘liq-dan mahrum bo‘lgan kishi” degan ma‘noni anglatadi. Fors tilida “mor”(ilon) so‘zi bilan “bemor” so‘zidagi “-mor” o‘xshash tovushlarga ega bo‘lsa-da, ular har xil ildizlardan kelib chiqqan. Ammo forslar “mor” ya‘ni ilonga ham “kasallik tarqatuvchi jonivor” sifatida qaraydilar... O‘zbek tilida esa u “kasal”, “dardman”, “davolanishga muhtoj inson” ma‘nolarida ishlatiladi. Bemor nafaqat tibbiy, balki psixologik, falsafiy va badiiy mazmunni o‘zida mujassam etgan muhim semantik birlik hisoblanadi. Tibbiyotda u organizmning normal holatidan chetlanishi, sog‘liqni buzilishi holatini bildirsa, psixologiyada insonning ruhiy holati, stress, tushkunlik yoki umidsizlik kabi ichki kechinmalari bilan bevosita bog‘liq holda talqin etiladi. Falsafada esa bemorlik inson hayotining cheklanganligi, o‘lim va mavjudlik muammolari, zaiflik va ongning uyg‘onishi holati bilan qamrab olinadi. Egzistensialistlar fikricha bemorlik holati ko‘pincha insonni o‘z hayotining mohiyatini chuqur anglash sari boshlaydi. Badiiy adabiyotda esa bemorlik kuchli badiiy vosita sifatida ishlatiladi. U orqali muallif insoniy mehr, fidoiylik, umid, sabr-toqat, ruhiy sinovlar va hayotga bo‘lgan ichki intilishni yoritadi. “So‘nggi yaproq” va “Skafandr va kapalak” asarlarida bemorlik motivini ko‘rib chiqishimiz mumkin.

O. Genrining “So‘nggi yaproq” novellasidagi qahramon Jonsi zotiljam (o‘pka yallig‘lanishi) kasaliga chalinib yotib qoladi. Yaproqlar to‘kilsa men ham o‘laman degan tushkunlik kayfiyati – ruhiy bemorlikni ifodalaydi. Rassom Berman derazaga oxirgi yaproqni chizadi va shu bilan umid uyg‘otadi. Bu yerda bemorlik – mehr, fidoiylik, san‘atning jonlanishi orqali uning qudrati namoyon bo‘lishi hamda inson qalbida to‘g‘ri qadriyatni shakllantirib, uning hayotini qutqarish orqali ko‘rsatiladi.

Jan Dominik Bobbining “Skafandr va kapalak” asarida esa Bobbi (locked in sindrome) ya‘ni miya insultiga uchrab butun tanasi falaj bo‘lib qoladi. Bu jismoniy cheklovlar bilan yuzma-

yuz kelgan inson obrazi. Ammo u ichki dunyosini kapalakka qiyoslaydi – bu tasavvur, tafakkur va ijod erkinligidir. Uning faqat bir (chap) ko‘zi harakat qiladi va u bu orqali o‘z asarini yozadi. Bu esa iroda va ruh kuchining g‘alabasi. Bemorlik bu yerda ruh erkinligi va tafakkur abadiyatining timsoli bo‘lish bilan birga qahramonni o‘zini anglashi, o‘z qadriyatlarini shakllantirishga undaydi. Ikkala asarda ham bemorlik insoniylik, irodaviy kuch, ruhiy uyg‘onish, o‘zini anglash, to‘g‘ri qadriyatlarni tushunib uni shakllantirish sifatida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, asarlarda bemorlik insonning o‘ziga, atrofdagilariga, hayotga bo‘lgan munosabatini o‘zgartiradi. Ruhiy qo‘llab-quvvatlash va umid bemorlikdan qutilishning asosiy kaliti sifatida talqin qilinadi va har ikki asarda ham san‘at va fikr dardga qarshi quroldir. “So‘nggi yaproq” va “Skafandr va kapalak” asarlarida bemorlik nafaqat jismoniy kasallik sifatida, balki inson ruhiyatiga irodasi va hayotga bo‘lgan munosabatiga ta‘sir etuvchi chuqur falsafiy va badiiy motiv sifatida talqin etiladi. Asarlarda bemorlik orqali ruhiy sinov, ichki o‘zgarish, o‘zini anglash, to‘g‘ri qadriyatlarni shakllantirish aks ettiriladi. San‘at va fikrning shifo beruvchi kuchi yoritiladi.

O. Genrining “So‘nggi yaproq” asarida bemorlik muhabbat va san‘at kuchi, qudrati bilan yengilsa, Jan Dominik Bobbinig “Skafandr va kapalak” asarida esa bemorlik iroda, tafakkur va ichki ozodlik orqali yengiladi. Bemorlik bu asarlarda sinov emas, balki insoniylikni isbotlash maydoniga aylanadi. Shu jihatdan bemorlik motivi o‘zida tibbiy, psixologik, falsafiy va badiiy qatlamlarni mujassam etgan kuchli semantik birlikdir. Bu motiv orqali inson hayotining har bir onini qadrlash, uni sabr va iroda bilan boyitish, hayot oldidagi e‘tiqod, qadriyatlarini yuqotmaslik kerakligi anglatiladi. Demak, bemorlik badiiy asarlarda nafaqat dard, balki ruhiy uyg‘onish, o‘zligini topish, to‘g‘ri qadriyatlarni shakllantirish orqali insoniy yuksalishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jan-Dominik Bobi. “Skafandr va kapalak” (xotira-asar). – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2020.
2. O. Genri. “So‘nggi yaproq” (hikoya). – Toshkent: G‘. G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, turli to‘plamlar.
3. Camus A. “Begona”. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015. (yoki rus tilida: Камю А. «Посторонний»).
4. (Egzistensializm adabiyotidagi asosiy g‘oyalar, yolg‘izlik, o‘lim va ruhiy holatlar talqini uchun mukammal misol.)
5. Dehkhoda ensiklopedik lug‘at. Eron nashri 2018.